

SOLIQ SIYOSATI VA STRATEGIYASINING ILMIY-NAZARIY MAZMUNI VA YUZAGA KELISH IQTISODIY SHART-SHAROITLARI

*O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi Magistranti
Avazov Shodiyor Jumanazarovich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariй mazmuni va yuzaga keliш иктисодий шарт-шароитлари soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash hisoblanadi. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o'ta muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Soliq, soliq munosatlari, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq imtiyozlari, soliq siyosati yo'nalishlari, davlat byudjeti, soliq ma'murchiligi, soliq yuki.

Аннотация: В данной статье научно-теоретическое содержание налоговой политики и стратегии и экономические условия ее возникновения заключаются в обеспечении эффективности налогово-бюджетной системы. Налоговая политика играет очень важную роль в экономической политике любой страны. Налоговая политика тесно связана с другими видами экономической политики государства и оказывает на них влияние. Правильная разработка налоговой политики и определение ее стратегических и тактических направлений – очень актуальный и сложный процесс.

Ключевые слова: Налоги, налоговые отношения, налоговая политика, стратегия налоговой политики, тактика налоговой политики, налоговые льготы, направления налоговой политики, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговая нагрузка.

Annotation: In this article, the scientific and theoretical content of tax policy and strategy and the economic conditions for its occurrence are to ensure the effectiveness of the fiscal system. Tax policy plays a very important role in the economic policy of any country. Tax policy is closely connected with other types of economic policy of the state and influences them. The correct development of tax policy and the definition of its strategic and tactical directions is a very relevant and complex process.

Key words: Taxes, tax relations, tax policy, tax policy strategy, tax policy tactics, tax incentives, tax policy directions, state budget, tax administration, tax burden.

Kirish: O'zbekistonda soliq strategiyasi bir qancha organlar, jumladan, har qanday iqtisodiy tizim sharoitida ham davlatning muhim va bosh funksiyalaridan biri bu jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi o'zaro tenglikni(proporsiyani) ta'minlash hisoblanadi. Bu orqali esa davlat iqtisodiyotning bir maromda borishini ta'minlashga, provardida esa sotsial-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishga erishadi. Ushbu jarayonlarni shakllantirish, ularni muvofiqlashtirish va ularning yo'nalishlarini to'g'ri belgilash ma'lum bir muddatlarga mo'ljallangan rejalarini ishlab chiqish borasidagi yangi vazifalarni keltirib chiqaradi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish:

Soliq strategiyasi soliq menejmentining muhim jihatni bo'lib, ushbu mavzu bo'yicha ko'plab adabiyotlar mavjud. Bu erda soliq strategiyasi bo'yicha nashr etilgan ilmiy maqolalarning bir nechta namunalari keltirilgan:

Tomas R. Pope, Margaret L. Shackell-Dowell va Martin K. Welch tomonidan "Soliq strategiyasi va korporativ ijtimoiy javobgarlik" (2015): Ushbu maqolada soliq strategiyasining korporativ ijtimoiy mas'uliyatdagi ahamiyati va tashkilotlarning soliq strategiyasini qanday moslashtirishi mumkinligi muhokama qilinadi. ularning umumiy CSR maqsadlari bilan.

Stiven C. Dilli va Ron L. Robertsning "Soliq strategiyasining evolyutsiyasi: adabiyotdan dalillar" (2013): Ushbu maqola vaqt o'tishi bilan soliq strategiyasining evolyutsiyasini ko'rib chiqadi, uning rivojlanishini taktik yondashuvdan ko'proq strategiyaga o'tkazadi. strategik.

Kris Evans va Styuart Jons tomonidan "Soliq strategiyalarining taksonomiysi: nazariy va amaliy istiqbollar" (2015): Ushbu maqola soliq strategiyalarining taksonomiyasini taklif qiladi va ularni tashkilotning strategik maqsadlariga moslashish darajasiga qarab to'rt guruhga ajratadi.

Reuven S. Avi-Yonah tomonidan "Soliq strategiyasi va ko'p millatli korxona" (2014): Ushbu maqolada ko'p millatli korxonalar uchun soliq strategiyasining ahamiyati muhokama qilinadi va ushbu tashkilotlar soliq strategiyasini biznes maqsadlari bilan qanday muvofiqlashtirishi mumkinligi haqida tushuncha beradi.


Maykl V. Klemm va Devid J. Linch tomonidan "Global lashayotgan dunyoda soliq strategiyasining o'rni" (2016): Ushbu maqolada soliq strategiyasi va uning global lashayotgan dunyoda tutgan o'rni, shu jumladan global lashuvning soliq strategiyasiga ta'siri haqida to'liq ma'lumot berilgan. soliq mutaxassislari va boshqa biznes funktsiyalari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati.

Ushbu maqolalar, boshqa ko'plab maqolalar qatori, soliq strategiyasining turli jihatlari, jumladan, uning vaqt o'tishi bilan evolyutsiyasi, soliq strategiyasini biznes maqsadlariga moslashtirishning ahamiyati va soliq strategiyasining korporativ ijtimoiy mas'uliyat va aktsiyadorlar qiymatiga ta'siri haqida qimmatli tushunchalar beradi.

Natijalarni tahlil qilish va muhokama qilish

Davlat yuqorida ta'kidlab o'tilgan funksiyalarini to'g'ri bajarishligi va uning samaradorligini ta'minlash maqsadida sotsial va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish jarayonlarini amalga oshirib boradi. Bu esa davlatning iqtisodiyotga "barometr" sifatidagi aralashuvining zarurligidan kelib chiqadi. Davlat bu boradagi funksiyalari bajarilishini ta'minlashda o'zining faoliyatini ma'lum bir yo'naliшlar bo'yicha guruhlagan holda amalga oshiradi. Bu esa uning turli yo'naliшlardagi siyosatining o'зagini tashkil etadi. Davlatning ushbu siyosatlari asosan ikki: ichki va tashqi yo'naliшlarda kechadi.

Davlatning soliq siyosatining iqtisodiy-ijtimoiy asoslari



1-rasm. Davlatning soliq siyosatining iqtisodiy-ijtimoiy asoslari¹

Har qanday iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayon bo‘ladimi yoki voqeylik va hodisalar bo‘ladimi albatta uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari bo‘ladi, xuddi shu singari tadqiqot ob’ektimiz bo‘lgan soliq siyosatining ham bir qator ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega asoslari ham mavjudki, ularni 1-rasmda keltirib o‘tdik. Ularga ko‘ra, davlatning soliq siyosatining iqtisodiy-ijtimoiy asoslari dastlab jamiyatning sohalar (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) o‘rtasidagi nisbat munosabatlarning muvofiqliligi ta’minalash zarurligidan kelib chiqadi, vaholanki, buni ta’minalash esa, uning keyingi asosi-milliy daromadni taqsimlashni mutanosib amalga oshirish zarurligini keltiradi, o‘z navbatida buni amalga oshirish esa, turli xil markazlashgan pul fondlarini tashkil etishni taqozo qiladi.


Albatta bu yerda davlat o‘zining siyosiy va iqtisodiy ustqurtmasidan kelib chiqib, turli xil pul fondlarini tashkil qilish mumkin. Dunyo amaliyotiga e’tibor beradigan bo‘lsak, deyarli barcha davlatlardan bunday pul fondlarining asosiy shakli sifatida davlat byudjeti asosiy rol o‘ynaydi. Boshqa pul fondlarini tashkil qilish va ularni moliyaviy manba bilan ta’minalash esa, davlatning soliq siyosati bilan parallel ravishda fiskal siyosatni ham taqozo etadi.

Markazlashgan pul fondlariga moliyaviy mablag‘larni jalb qilish zarurligi soliqlar va boshqa majburiy yig‘imlarni vujudga keltiradi (davlatning boshqa iqtisodiy yo‘li ham yo‘q), bu majburiy to‘lovlarni undirish esa, jamiyat a’zolari (soliq to‘lovchilar)idan majburiy to‘lovlarni undirish tartib va mexanizmlarini optimal yo‘lga qo‘yish zarurligini taqozo etadiki, buning o‘zi juda ko‘plab murakkab va keng qamrovli iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilishni taqozo etadi, bir so‘z bilan aytganda soliq siyosatini yuritishni talab qiladi. Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchilar va davlatning moliyaviy ehtiyojlarinini muvofiqlashtirib turish zarurligi va davlatning iqtisodiyotni tartiblash iqtisodiy funksiyasini amalga oshirishda moliyaviy dastaklarga bo‘lgan ehtiyojning mavjudligi kabi ob’ektiv jarayonlar ham borki, ularning barchasi umumlashgan holda davlatning soliq siyosatini yuritishni, uning doirasida strategik maqsadlarni belgilashni, unga erishish maqsadida esa, taktik yo‘nalishlarni belgilab borishni ob’ektiv-iqtisodiy jarayon sifatida zaruratni keltirib chiqaradi.

Albatta davlatning asosiy iqtisodiy maqsadi jamiyatning sohalar (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) o‘rtasidagi nisbat munosabatlarning muvofiqliligi ta’minalashga qaratilgan bo‘ladi, bunga erishish uchun esa, davlat turli xil: iqtisodiy, ijtimoiy, sotsial hattoki siyosiy sohalardagi siyosatlarini amalga oshirish, bu siyosatlarni muvofiqlashtirgan holda milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta’minalashga harakat qiladi, vaholanki, bu barqarorlikning asosini esa, iqtisodiy barqarorlik tashkil

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

etadi, uning faoliyatini ta'minlashda esa moliyaviy hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati muhim ehtiyoj bo'lib ob'ektiv ravishda yuzaga chiqadi.



2-rasm. Davlat iqtisodiy maqsadi va soliq siyosati o'rtaqidagi uzviylik².

Har qanday siyosat o'z chegarasi bo'lganligi sababli soliq siyosati ham ma'lum bir chegaralariga ega bo'ladi. Ammo, soliq siyosatida iqtisodiy munosabatlardan

² Muallif tomonidan tuzilgan.

tashqari sotsial, psixologik, madaniy hatto tashqi munosabatlarni qamarab oladiki, bu soliq siyosatining boshqa ichki va tashqi siyosatlarining o‘zaro chambarchas tarzda mavjud bo‘lishini ko‘rsatadi. Soliq siyosatining sotsial siyosat bilan bog‘liqligi shundaki, aholining kam ta’minlangan va kam daromadga ega bo‘lgan qatlamini ijtimoiy himoya qilish, ularga soliq imtiyozlarini qo‘llash, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar narxiga soliq stavkalari orqali ta’sir qilish(qo‘shilgan qiymat solig‘ida nollik stavkaning qo‘llanilishini eslang), nogironlar va yosh mutaxassislar(kollej o‘quvchilarini)ni ishga qabul qilishda imtiyozlarni qo‘llash, ish o‘rnlarni yaratish va shu kabi jarayonlar sotsial siyosatning mazmunini tashkil etib, bunda soliq tizimi bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya munosabatlaridan kelib chiqadi va unga xizmat qiladi. Qolaversa u iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlantirishga, moliya munosabatlarini boshqarishga ta’sir ko‘rsatadi.

Soliqlar davlat byudjetining asosiy qismini tashkil etishda manba vazifasini bajarishi bois davlat soliq siyosati orqali soliq munosabatlarini tartibga keltirib turadi shu tariqa davlat soliq siyosatini ishlab chiqishning asosiy tashkilotchisi sifatida maydonga chiqadi. Davlat o‘z moliyaviy idoralar faoliyatini soliq siyosatini ishlab chiqishga va amalyotda qo‘llanishiga jalg etadi. Davlat Moliya Vazirligi Davlat soliq qo‘mitasi va boshqalar faoliyatini soliq siyosatini ilmiy asoslangan holda muvoffaqiyatli ishlab chiqishga qaratar ekan, uni boshqa iqtisodiy va moliyaviy siyosatlar bilan uzviy bog‘lanishini ham ta’minlaydi. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda soliq munosabatlari doirasidagi yutuqlar va kamchiliklarni e’tiborga olish, ularni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganib chiqish orqali soliq hisobi, to‘lovi va amal qiluvchi soliq elementlarini o‘zgarishini e’tiborga olishi zarur.

Soliq siyosati moliya siyosatining boshqa tarkibiy qismlari bilan juda bog‘liq holda mavjud bo‘ladi. Soliq siyosati byudjet siyosati bilan birgalikda ko‘pincha byudjet-soliq siyosati ham deb yuritiladi. Shu bilan birgalikda soliq siyosati fiskal siyosat bilan o‘zaro farqli xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Soliq siyosati bundan tashqari monetar siyosat bilan ham o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Chunki, soliq siyosati ishlab chiqilayotganda inflyatsiya darajasi, pul agregatlarining hajmi va harakatiga soliqlarning ta’siri, korxonalarining investitsion siyosatini qo‘llab-qo‘vvatlashda kredit resurslaridan foydalanish kabi masalalar albatta soliq siyosati bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomonidan uning ichki mexanizmiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomonidan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy xolatga bog‘liq bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda ustqurmaga bevosita bog‘liqdir. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat muxim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy siyosat o‘z navbatida ichki va tashqi madaniy-ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo‘linadi. Iqtisodiy siyosat ham o‘z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib,

ularning yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muxim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baxo siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy soxalariga faol ta’sir ko‘rsatadi. Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy-moliyaviy siyosat turlari bilan bog‘langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muxim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baxo siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy soxalariga faol ta’sir ko‘rsatadi. Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy-moliyaviy siyosat turlari bilan bog‘langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar:

Soliq siyosati va strategiyasi - bu soliq tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar va tamoyillarni ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan murakkab soha. Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy mazmuni soliq nazariyasi, soliq huquqi, iqtisodiyot, davlat moliyasi, buxgalteriya hisobi kabi keng ko‘lamli mavzularni o‘z ichiga oladi.

Soliq siyosati nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy mazmun samarali, adolatli va shaffof soliq tizimini loyihalash tamoyillari va yo‘riqnomalarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Bunda soliq solish, soliq progressivligi va soliq betarafligini o‘rganish, shuningdek, turli soliq solinadigan bazalar va soliq stavkalari o‘rtasidagi o‘zarobog‘liqlarni tahlil qilish kiradi.

Soliq strategiyasi nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy mazmun soliq rejallashtirishni optimallashtirish va soliq tavakkalchiliginı minimallashtirish yondashuvlarini ishlab chiqish, shuningdek, soliq siyosatining tadbirkorlik faoliyatiga oid qarorlar va iqtisodiy natijalarga ta’sirini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bunda soliq panalarini o‘rganish, transfert narxlari va xalqaro soliqni rejallashtirish, shuningdek, soliq siyosatining iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga ko‘maklashishdagi rolini tahlil qilish kiradi.

Soliq siyosati va strategiyasini takomillashtirish bo‘yicha takliflar bilan chiqish uchun olimlar va amaliyotchilar bir nechta sohalarga e’tibor qaratishlari mumkin. Masalan, ular soliqqa rioya qilishni yaxshilash va soliqdan bo‘yin tov lashni kamaytirish uchun texnologiya va ma'lumotlar tahlilidan foydalanishni o‘rganishi yoki globallashuv va transchegaraviy operatsiyalarning soliq siyosati va strategiyasiga ta’sirini o‘rganishi mumkin. Bundan tashqari, ular soliq siyosatining iqtisodiyotning turli tarmoqlariga,

masalan, kichik biznes, boshlang'ich korxonalar va transmilliy korporatsiyalarga ta'sirini o'rganishlari va soliq rejalashtirishni optimallashtirish va ushbu guruhlar uchun soliq risklarini minimallashtirish bo'yicha strategiyalarni taklif qilishlari mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.redalyc.org/journal/4417/441768343003/html/>.
2. Vol. 41, No. 1 (1983), pp. 181-222 (42 pages) Published By: Springer
3. https://www.researchgate.net/publication/302559561_A_Taxonomy_of_the_Tax_Compliance_Literature_Further_Findings_Problems_and_Prosp.
4. Advances in Social Science, Education and Humanities Research (ASSEHR), volume 168.
5. <https://www.oecd.org/g20/Tax-policies-for-inclusive-growth-in-a-changin-world-OECD.pdf>
6. Нормурзаев У. Ўзбекистонда солик сиёсатини такомиллаштиришда худудлараро солик инспекцияси ўрни ва аҳамияти //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 457-467.
7. Нормурзаев У. Ўзбекистонда солик сиёсатини такомиллаштириш ва унинг барқарорлигини таъминлаш йўллари //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 177-182.
8. Нормурзаев У. Ўзбекистонда солик сиёсатини такомиллаштириш бўйича таҳлил ва таклиф //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 329-336.
9. Нормурзаев У. "Мамлакатимизда солик тизимида амалга оширилган ислоҳотлар таҳлили." Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 1.4 (2023): 177-183.